

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2022 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 4 166,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. YAHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,9 foiz, (YAHM tarkibidagi ulushi 33,0 foiz), sanoat – 104,7 foiz (18,5 foiz), qurilish – 104,6 foiz (6,7 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 112,4 foiz (8,6 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 110,1 foiz (4,7 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 103,1 foiz (28,5 foiz)ni tashkil qildi.



2022 yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash, axborot va aloqa



Boshqa xizmat tarmoqlari




YAHM deflyator indeksi 2022 yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 113,9 foizni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 879,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 foizga o'sdi.

2022 yilning yanvar-martida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





2022 yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHMning ishlab chiqarish usuli bilan hisoblangan tarkibi

	Mrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2021 yil	2022 yil	
I. YAHM	3 496,5	4 166,7	104,7
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 371,1	4 036,8	104,5
 Mahsulotlarga sof soliqlar	125,4	129,9	109,8
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 371,1	4 036,8	104,5
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 210,6	1 332,9	102,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	750,4	1 017,7	104,6
 sanoat	498,1	745,5	104,7
 qurilish	252,3	272,2	104,6
Xizmatlar	1 410,1	1 686,2	105,7
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	276,6	345,2	112,4
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	163,8	188,1	110,1
 boshqa xizmat tarmoqlari	969,7	1 152,9	103,1

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.



2021 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



		2021 yil	2022 yil
	I. YAHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,4	96,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	3,1
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	35,9	33,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,3	25,2
	sanoat	14,8	18,5
	qurilish	7,5	6,7
	Xizmatlar	41,8	41,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,2	8,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,9	4,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	28,7	28,5

2022 yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 33,0 % ni, sanoat tarmogʻi 18,5 % ni, qurilish 6,7 % ni va xizmatlar sohasi 41,8 % ni tashkil qildi.



Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi vanvar-mart holatiga (iamiga nisbatan foizda)



● Yalpi qoʻshilgan qiymat



● Mahsulotlarga sof soliqlar



**Xizmatlar sohasining yalpi qoʻshilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**


2021 yil yanvar-mart

2022 yil yanvar-mart



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2022 yil yanvar-mart oylarida – 8,6 foizni (2021 yil yanvar – mart oylarida – 8,2 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 4,7 foizni (4,9 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 28,5 foizni (28,7 foiz) tashkil etdi.



**2022 yil yanvar-martda kichik biznesning YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan foizda)**

2022 yil yanvar-mart kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 72,5 foizni tashkil qildi (2021 yil yanvar-martda – 74,5 foiz).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'li.

